
TUMAN HOKIMINING SAYYOR QABULI MUAMMOLARGA YECHIM BO'LMOQDA
Qo'shtepa tumani hokimi, birinchi sektor rahbari Ilyosbek Novikov
"Nurafshon" mahalla fuqarolar yig'inida sayyor qabul o'tkazdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman Xalq qabulxonasi mudiri R.Abdullayev, davlat idoralari mas'ul rahbar va xodimlari ishtirok etdilar.

Sayyor qabulda 10 nafardan ziyod fuqarolarning murojaatlari tinglandi.

Fuqarolar tomonidan asosan elektr energiyasi, ichimlik suvi, uy-joy, tadbirkorlik uchun kredit ajratish singari murojaatlar kelib tushdi.

Mazkur masalalarning ayrimlari joyida hal etilgan bo'lsa, ba'zilari soha mas'ullari ishtirokida o'rganish uchun nazoratga olindi va amaliy yordam ko'rsatiladigan bo'ldi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-07-09 16:57:10